

Tong yulduzi

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

N:8 (67225)
2019-yil 25-fevral

www.tongyulduzi.uz

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi


ISSN - 2010-6092

1-MART - O'ZBEKISTON XALQ SHOIRI ZULFIYAXONIM TAVALLUD TOPGAN KUN

BAXTIJA SHUL - O'ZBEKNING ZULFIYASI MAN!

...Zulfiyani odamlarga ardoqli qilgan, adabiyotimizning yorqin yulduzlaridan biriga aylantirgan, XX asrning buyuk ayollari qatoriga qo'shgan asosiy omil nima? Menimcha, bu uning e'tiqodi, juda yuksak ma'naviy va axloqiy fazilatlarini, dili bilan tilining birligi, she'rlarida madh etgan insoniylik, vafo, sadoqat va diyonat degan narsalarga o'zi hayotda og'ishmay amal qilganida.

Ozod SHARAFIDDINOV,
O'zbekiston Qahramoni



«BOLALIK KUNLARIMDA»

**ENDI BOLAJONLAR
UCHUN AUDIOERTAKLAR
TAYYORLANADI**



5-bet

YASHNANG, OCHILING, O'SING, KO'Z, DILIMIZ NURLARI

O'quvchilarimiz juda yaxshi bilishadiki, Zulfiyaxonim bolalar shoiri emas. Turli munosabatlar bilan yozilgan «Sen tug'ilgan kun», «Lolaqizg'aldoq» kabi she'rlarini hisobga olmasak, shoiraning barcha asarlari kattalarga atalgandek. Lekin chinakam shoirning, Vatani, xalqini sevgan, qadrlagan ijodkorning ijodida hamma yoshdagi kitobxonlar o'qisa, zavqlansa bo'ladigan asarlar topiladi.

Shu ma'noda Zulfiyaxonimning ham Siz aziz bolajonlarga aytar so'zlari bor. Shoiraning «O'g'lim, sira bo'lmaydi urush» deb nomlangan hamisha zamonaviy mavzuda yozilgan she'rini eshitgansiz. Shoiraning yozadi:

*Ota bo'lib soldim men yo'lga,
Ona bo'lib mehrimga oldim.
Mana, yurtga o'g'il o'stirgan,
Bir davlatmand boy bo'lib qoldim.*

*Qancha ishonch, umid baxsh etar,
Ham Vatanga, ham menga bu dil.
Qoya kabi yonimdan chiqib,
«Suyan, – deydi, – kiftimga dadil»...*

Zulfiyaxonim «men» deb yozsa-da, u hech qachon faqat o'z «men»i haqida yozmaydi. Shu sakkiz satrda biz ota-onalarning aql-u tafakkuri bilan kamolga yetgan farzandlar ular uchun nechog'li ulug' faxr-u iftixor ekanligini sezamiz. Farzandining voyaga yetib, qoyadek yoniga kelib, «Menga suyan», deya oladigan baxtli onga yetishish quvonchini shoiraga oddiy, samimiy, ta'sirli tasvirlaydiki, beixtiyor buni o'qigan o'quvchida bezavol o'sib-ulg'ayib, mehribonlariga suyanch bo'lish orzusi uyg'onadi.

She'rdan she'rga ko'char ekansiz, Zulfiyaxonimning qalbdan satrlariga ko'chgan Sizga bog'liq his-hayajonlarini tobora yaqqolroq tasavvur qila borasiz:

*Siz hayoti o'lkamning,
Siz kelajak gullari.*

**Yashnang, ochiling, o'sing,
Ko'z, dilimiz nurlari.**

Bu issiq satrlarni Zulfiyaxonim shunchaki shoiraga emas, shoiraga ona bo'lib yozayotgandek tuyuladi, hatto satrlardagi taft Sizga o'tib, dilingizni erkalaydi.

*Naq bobosi siyoh zihinday tiyrak,
Ko'kish alangada yonar ko'z-u qosh.
Borlig'i ezgu bir o't bo'lsa kerak,
Tomirlarda qonmas, kezadi quyosh.*

Bu Zulfiyaxonimning «Nevara» she'ridan olingan. Toile shoiraga shunday katta muhabbatli yurak berganki, u «Tomirlarida qonmas quyosh kezayotgan» nevarasi – Ulug'bek haqida yozar ekan, Sizni ham nazardan qochirmaydi:

*Nevara bo'lmasa, odamzod, albat,
O'zi kashf etardi kashf etgandek baxt,
– deya hammangizni bu dunyoda borligingizdan,
siz onalar, buvilar uchun betakror kashfiyot qadar
aziz ekanligingizdan suyunadi.*

Shoiraga o'zidan keyin ham Sizlarga baxtli hayot, yorug' hayot qolishini istaydi. Bu istak Zulfiyaxonim ijodida qanday akslanadi?

*«Ne qilaylik?», «Qanday bo'lsa?», «Nechuk bo'lur?»
So'rasangiz, nazdingizda, ko'nglim to'lur.
Bolajonlar, bir kun shamday bir jon so'lur,
U choq kimdan so'roqlaysiz men bo'lmasam...*

Shoiraga bu alomli savolga ko'tarinki ruhda javob beradi:

*Har g'ishtida bahorimning bir yaprog'i,
Har burchida haroratim dil ardog'i.
Sizga asqab hovli to'la tole bog'i,
Kulgingizdan batang kelsin, men bo'lmasam...*

Shoiraga bugun oramizda bo'lmasa-da, ularning muhabbat daraxtida ungan gul-u yaproqlarini berib, ularning yashilligi, muattar islaridan bahramand bo'lib yashayapmiz.

Kelgan bahorga, aziz Vatanimizni betakror go'zalliklarga burkab, jilolantirgan, yosh umrimizdagi yana bir bahorga qarab, o'zimiz ardoqlagan shoiraga ovozida xushhol kuylab yuboramiz:

*Kel, bahor, inqilob singari,
Itqit qish qobig'in jonlardan.
Qo'yma u darzlarni singani,
Payvandla eng jasur ranglardan...*

Qutlibeka RAHIMBOYEVA,
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan
madaniyat xodimi



BAHOR SO'ROQLAYDI IZLARINGIZNI

Nur yog'adi yuzlaringizdan,
Dur sochilar izlaringizdan.
Mehr yog'ar ko'z'laringizdan,
Millat faxri – Zulfiya opam.

She'riyatda so'zi durdona,
Sadoqatda tanho, bir dona.
Muhabbat bog'ida yagona,
Millat faxri – Zulfiya opam.

Bahor so'roqlaydi izlaringizni,
Xalqim ardoqlaydi she'rlaringizni.
Yulduzlar yoritar yuzlaringizni,
Millat faxri – Zulfiya opam.

Tamanno BOBOQULOVA,
Suxondaryo viloyati, Sariosiyo
tumanidagi 68-umumta'lim makta-
bining 11-sinf o'quvchisi



ZULFIYAXONIM

Ayollar ichida tengsiz durdona,
Sadoqat, vafoda bo'lib yagona.
Shoiraga, olimaga, mehribon ona,
Zulfiya o'zbekda o'zi bir dona.

Muhabbatni kuylab o'tgan u,
Sog'inchlarni unsiz yutgan u.
Taqdirini sinov deb bilib,
Bir umrga yonib o'tgan u.

Boychechakni erkalab o'pdi,
O'rik gulin ko'ksiga tutdi.
Vatanini olqishlab o'tdi,
Unga atab ash'orlar bitdi.

Zulfiya o'zbekning mardona qizi,
Har bitta yurakka parvona o'zi.
Jaranglab turadi uning dil so'zi,
Charaqlab turibdi baxtin yulduzi.

Dilnavoz ABDURAHIMOVA,
Farg'ona viloyati, Qo'shtepa tumanida-
gi 2-IDUMning 10-sinf o'quvchisi



GO'ZALLIK TIMSOLI

Qalbingma nur kabi kirib kelgansiz,
Yuragim to'ridan joy ham olgan siz,
Siz ko'nglim g'unchasi bo'lib qolgansiz,
O'zbekim yulduzi Zulfiyaxonim.

Ilm-u fan kuychisi, mangu ertaksiz,
Borliqni ulug'lab yongan yuraksiz,
Bahorning elchisi, rangin kurtaksiz,
Go'zallik timsoli Zulfiyaxonim.

Maftuna MAHMUDJONOVA,
poytaxtimizning Olmazor
tumanidagi 261-umumta'lim
maktabining 10-«A» sinf o'quvchisi



SHE'RIYATNING DURDONASI

Adabiyot xazinasi,
She'riyatning durdonasi,
Ko'ngillarning parvonasi,
Zulfiyaxonim she'rlari.

Vafoga chiroy berib,
So'z bog'idan gul terib.
Hamon yashar dil kezib,
Zulfiyaxonim she'rlari.

Ilyosbek DONOBOYEV,
Toshkent viloyati, Angren
shahridagi 6-umumta'lim
maktabining 6-sinf o'quvchisi



HAR BIR KUNIM MAROQI

Jahon madaniyati sivilizatsiyasiga o'zining munosib hissasini qo'shgan allomalarimiz, buyuk zotlarimiz ilm olish masalasiga jiddiy e'tibor bergan.

Maktab rahbarimiz Nurali Islomov, sinf rahbarimiz Farida Yodgorova ham bizni hamisha ilm olishga da'vat etadi. Tafakkuri yuksak insongina hayotda o'z o'rnini topadi, deb uqtiradi.

Men ona tili va adabiyot faniga qiziqaman. «Bilimlar bellashuvi» va «Yosh kitobxon» tanlovida qatnashib, faxrli o'rinlarni egallayapman. Shuningdek, mutolaani yaxshi ko'raman. Chingiz Aytmatovning «Oq kema», Abdulla Qodiriyning «O'tkan kunlar», O'tkir Hoshimovning «Ikki eshik orasi» romanlari va Xudoyberdi boboning barcha asarlarini sevib o'qiyman. Muhammad Yusufning she'riy kitoblarini ham maroq bilan mutolaa qilaman. Hozirda she'r yozishni mashq qilyapman. Asosiysi, har bir kunimni mazmunli o'tkazishga e'tibor qaratyapman.



Sevinch NE'MATILLAYEVA,
Qashqadaryo viloyati, Yakkabog' tumanidagi
29-umumta'lim maktabining 7-sinf o'quvchisi

OLQISH OLGAN BOLALAR

Mana, bir haftadirki, Yoshlar markazi binosida kitoblar taqdimoti bo'lib o'tmoqda.

Unda tumanimizdagi barcha umumta'lim maktablari o'quvchilari faol ishtirok etmoqda. Jumladan, 3-, 4-, 34-, 58-umumta'lim maktablari o'quvchilari o'zlari o'qigan turli xil kitoblarning taqdimotini juda mazmunli o'tkazishdi. 4-umumta'lim maktabining 9-«A» sinf o'quvchilari sinf rahbari Shoira Tursunova boshchiligidagi O'tkir Hoshimovning «Daftar hoshiyasidagi bitiklar» asarini sahna ko'rinishlari orqali namoyish etishdi. 34-umumta'lim maktabidagi kelgan 6-«A» va 8-«V» sinf o'quvchilari taqdimoti ham juda qiziqarli bo'lib, yig'ilganlar olqishiga sazovor bo'ldi. Ushbu tadbir orqali o'quvchilar mutolaaning fusunkor olamiga sayr etib, o'zlari uchun hayotiy xulosalar chiqarmoqda.

Marjona QOBILOVA,
Samarqand viloyati, Pastdarg'om tumanidagi
125-umumta'lim maktabi o'quvchisi

Sinfimizga yangi o'quvchi keldi. Ali-Aziz ismli bu bola o'zining chuqur bilimi bilan barchaning mehrini qozondi. Ustozlar ham uni maqtab, o'quvchilarga o'rnatqilib ko'rsatishdi. Shu-shu bo'ldiyu, «yangi o'quvchi» barchamizni ilm olishga undadi. Hatto fanlarni past o'zlashtiruvchi bolalar ham undan namuna olishdi.

Sinfimizdagi Zayniddin, Abdumuzim, Amina, Ali-Aziz va men o'zaro bilimimizni sinab, sardorlar jangini o'tkazdik. Quvonarlisi, bu kabi bellashuvlar bilimlarimizni mustahkamlashga zamin yaratmoqda.



SARDORLAR «JANGI»

Asila ARALOVA,
poytaxtimizning Yakkasaroy tumanidagi
48-umumta'lim maktabining 6-«B» sinf o'quvchisi

1-«D»DA O'QISH DARSINI

Poytaxtimizning Shayxontohur tumanidagi 324-umumta'lim maktabining 1-«D» sinf rahbari Shahnoza Karimova o'zining navbatdagi o'qish darsini «Chumoli va tipratikan» masalini ifodalay o'qib berish bilan boshladi.



Ikki-uch o'quvchi masalni ifodalay o'qigach, qolganlar asardagi personajlarni sanab berishdi. Bolakaylar tushunarsiz bo'lgan «Shudgor», «Badnafs», «Sheryurak», «Mol», «Aylar», «Jonsarak» kabi so'zlarning ma'nosi lug'at daftariga yozib olishdi. So'ng, o'quvchilarga BBB («Bilaman – Bilishni xohlayman – Bilib oldim») metodining birinchi va ikkinchi qismiga doir «Chumoli va tipratikanni uchratganmisiz?», «Ularning o'xshashligi bormi?», Farqlari-chi? «Chumoli tipratikandan nimani so'radi?», «Chumolini tipratikanga javobida xalqning qanday hikmati yashiringan?», «Masal xulosasi sifatida fikringizni oydinlashtiring» kabi savollarga

javob yozish topshirig'i berildi. Bolalar «Bilaman» qismiga «Chumoli va tipratikanni ko'rganman», «Chumoli qoyillatishdi.

«Tipratikanning ignalari bor», «Shaklan bir-biriga o'xshamaydi» kabi javoblarni yozishgan bo'lsa, «Bilishni istayman» qismiga «Tipratikan qayerlarda uchraydi?», «Uning o'zi kichkina-yu, katta narsani olib ketmoqchi bo'lib urinishini ko'ringlar, obbo badnafs-ey», deganini kengroq tushunishni xohlayman kabi fikrlarni yozishdi.

Mashg'ulot davomida masaldagi obrazlar Xonzoda Sulaymonxo'jayeva, Jamila Isayeva, Behruz Zabixullayev kabi o'quvchilar tomonidan mahorat bilan ijro etildi. So'ngra, asardagi personajlarga mos rasmlar chizildi. Nuriddin Aripxonov, Mirakbar Mirhamidov, Xadicha Alimova, Mustafo Imomov, Bilol Baxtiyorov kabi o'quvchilar ifodalay o'qishda barchaga o'rnatqilib bo'lgan bo'lsa, Madina Muhiddinova, Kamola Ziyodullayeva, Qodirjon Abdullayev, Abduboriy Baxtiyorov, Abduaziz Shernazarov, Manzura Yusupova kabi o'g'il-qizlar mavzuga doir rasm chizishni qoyillatishdi.

Nodira NAZAROVA

KICHKINTOYLAR QUVONCHI

Aziz bolajonlar! O'ylab qarasang, maktabingizning mo'jaz sahnasi iste'dodli o'quvchilarga kelajakda yetuk san'atkor bo'lishga imkon berar ekan. Bugun sizga hikoya qilmoqchi bo'lgan iqtidorli tengdoshlaringiz ham ilk bor maktab sahnasida o'zlarining sevimli ertak qahramonlari obrazini gavdalantirishdi.



Poytaxtimizning Yunusobod tumanidagi 271-umumta'lim maktabida tahsil olayotgan boshlang'ich sinf o'quvchilari ishtirokidagi bayramni ustozlar «Baxtli bolalik» deb nomlashibdi. Eh, bu tadbirni bir tomosha qilganingizda edi, endigina 1-sinfda tahsil olayotgan jajji bolakaylarning bir-biridan ajoyib chiqishlarini ko'rib, beixtiyor «Yashang, balli!» deb yuborardingiz.

Dastlab 1-«A»

sinf o'quvchisi Diyora Hojimurodova va 1-«B» sinf o'quvchisi Samir Ahmedov navbat «Sholg'om» ertagi asosida tayyorlangan sahna ko'rinishiga yetdi. Ayniqsa, «Sonlar bahsi» nomli badiiy chiqishda hazil-mutoyiba orqali hatto eng kichik sonning ham o'z o'rni va qiymati bor ekanligi isbotlandi. Shundan so'ng, boshlang'ich sinflar uslubiy birlashmasi rahbari Moida Xoliqova o'quvchilar o'rtasida rasmlar tanlovinini o'tkazish taklifini bildirdi. Jajji

qo'llar tezda ishga kirishib, g'oliblar ham aniqlandi. Jumladan, 1-«V» sinfning iqtidorli o'quvchilardan biri Soliha Bahodirova ham g'oliblikni qo'lga kiritib, faxriy yorliq bilan taqdirlandi. Biz esa maktab rahbari Latofat Qodirova va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha rahbar o'rinbosari Dilobar Mo'minova boshchiligidagi ushbu maskanda qilina-yotgan xayriy ishlar va tadbir bilan xayrlashdik.

Sayyora QODIROVA

QUVNOQ UCHRASHUV

Poytaxtimizda joylashgan Mirzo Ulug'bek nomidagi ixtisoslashtirilgan 171-umumta'lim maktabida O'zbekiston Respublikasi Mudofaasiga ko'maklashuvchi «Vatanparvar» tashkiloti tomonidan Dilshod Rajab va Soib Mirzo kabi ijodkorlar bilan ijodiy kecha tashkil etildi.



Kechada 3-, 4- va 5-sinf o'quvchilari faol ishtirok etdi. Ayniqsa, 5-«A» sinf o'quvchilari Munisa Odilova, Shohsanam Xolmatova, Gul Aminbayeva, Oybek Murodov, Hafiza Jalilova, Munira Kenjayevalar ustozlari Shahlo Shamsimetova ko'magida yod olgan she'r va qo'shiqlari bilan kechaga yanada fayz kiritdi. Ayniqsa, Nigora Rashidova rahbarligidagi 4-«A» sinf o'g'il-qizlari tayyorlagan sahna ko'rinishi barchaga manzur bo'ldi.

Tadbir davomida ijodkor mehmonlar o'quvchilarga o'zlarining iliq tilaklarini bildirdi. So'ng, bolalarni qiziqtirgan barcha savollarga atroficha javob qaytardilar.

– Yoshligimda shoirlarning 700 ta she'rini yod olganman. She'rlar va uning mualliflarini yon daftarimga yozib borardim. Mana, o'sha paytlarda olgan bilimlarim bugun menga asqotmoqda, – deya Dilshod Rajab yangi ijod namunalaridan birini o'quvchilarga aytib berdi.

Tadbir so'ngida 3-«A» sinf o'quvchisi Faxsiddin Toshxo'jayevga shoirning «Poyezdning bolasi» nomli kitobi sovg'a qilindi.

Nigora ABDUNAZAROVA

Maktabimizda yozuvchilar, shoirlar, san'atkorlar va olimlar bilan ijodiy uchrashuvlar, yuzma-yuz muloqotlar o'tkazish yaxshi an'anaga aylangan. Bu esa o'quvchilarning olgan bilimlarini yanada mustahkamlash va dunyoqarashlarini boyitishga xizmat qilmoqda.

Yaqinda uyushtirilgan navbatdagi tadbirimiz mehmoni O'zbekiston xalq yozuvchisi Xudoyberdi To'xtaboyev bo'ldi. «Sehrlil qalpoqcha», «Sariq devni minib», «Sariq devning o'limi» kabi turli janrlarda bitilgan ko'plab asarlar muallifi avvalo, yoshlarga o'z hayoti va ijodi haqida so'zlab berdi. So'ngra, ularni qiziqtirgan savollarga batafsil javob qaytardi. O'z navbatida, navqiron o'g'il-qizlar yozuvchi asarlaridan parchalar o'qib hamda ular asosida sahnalashtirilgan lavhalarni namoyish etib, davraga yanada fayz kiritdilar.

Men maktabimizdagi 5-«A» sinfiga rahbarlik qilaman. O'quvchilarimning barchasini o'z farzandimday ko'rman. Axir iqtidorli va intiluvchan bolalarni yaxshi ko'rmay bo'ladimi?!

Ya- qinda ta'lim dargohimizda o'tkazilgan «Bilimlar bellashuvi»da Muslima Saidxo'jayeva, Shahrizoda Oripova, Sohiba

men Ismoilov, Saodat Hamzayeva kabi bilimdon o'quvchilarim faxrlil o'rinlarga sazovor bo'ldi. Men bu muvaffaqiyatdan mamnun



TIL BILGANGA OMAD-YOR!

Siz suratda ko'rib turgan bu yoqimtoy qizaloqlar Xorazm viloyati, Urganch shahridagi 5-umumta'lim maktabining 1-«D» sinfiga tahsil olishadi. Kumushoy Jumaniyozova, Nafisa Ozodova, Zarina Pirnazarova darslardan bo'sh vaqtida maktabda tashkil etilgan to'garaklarga qatnaydi.



Sinf rahbari Muqaddas opa Sobirova o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish uchun ularni to'garaklarga qatnashini ko'p bora tayinlaydi.

Sayyora opa Boymuratova rahbarlik qilayotgan ushbu ta'lim maskanida bugun 2050 nafar o'quvchi ta'lim-tarbiya olmoqda. O'quvchilar tanlovlar-u fan olimpiadalarida, «Bilimlar bellashuvi»da muntazam 1-o'rinni egallab kelmoqda.

aytishimiz mumkin. O'quvchilarning o'qishga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshirish uchun ularning bilimni baholash «Matematik auk-sion»ga qo'yiladi. Bolalar ushbu auk-sion orqali olgan bilimlarini bir-biri bilan taqqos-laydi. Jumladan, axborot texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha «Kompyuter qismlarini ajratish va yig'ish»ga doir tanlov ham o'tkaziladi.

Yana bir yangilik: o'quvchilar chet davlatlardagi tengdoshlarining hayoti, bilim va ko'nikmalarini muntazam ravishda o'rganib, ular bilan ta'limiy suhbatlar, internet orqali intervyu va xatlar almashisharkan. Masalan, ular Rossiya Federatsiyasining Qozon shahridagi 142-umumta'lim maktabi o'quvchilari bilan ingliz tili darslaridagi olgan bilimlarini tajriba almashinish orqali sinovdan o'tkazdilar.



– O'quvchilarimizning bunday yuksak natijalarni qo'lga kiritishlarida izlanuvchan ustozlarning dars sifatiga alohida e'tibor berishlari hamda ta'limga qaratilgan innovatsion yondashuvlarning to'g'ri ta'lim qilinganida deb bilaman, – deydi Sayyora opa. – Maktabimizda o'quvchilarning mantiqiy fikrlashi, amaliy ko'nikmalarini shakllantiruvchi musobaqa va tanlovlar muntazam o'tkaziladi. Bunga misol qilib, 1–4-sinflar o'rtasida «Iqtidorli bolalar», «Chiroyli yozuvlar mamlakati egalari», «Bola iqtidorlimi, ota-ona e'tiborlimi?» tanlovlarini

– Rossiyalik tengdoshlarimizning hayoti, yutuqlari bilan yaqindan tanishishimiz til o'rganishimizga yordam berdi. Bir-birimizni mehmonga taklif qildik, – deydi 10-sinf o'quvchisi Xurzodbek Gaipov.

«Til bilganga ming tanga», degan maqolni barchangiz bilasiz. Siz ham bu tengdosh-laringiz singari til o'rganishga hozirdanoq kirishing. Biz esa uranchlik kelajagimiz vorislarining beg'ubor orzulari ushalingizga tilakdoshmiz.

Ozoda TURSUNBOYEVA

BIR MAKTABDAN QO'SH MAKTUB

Samimiy ruhda o'tgan adabiy uchrashuv maktab o'quvchilari va o'qituvchilarida katta taassurot qoldirdi.

Dilorom HAYDAROVA

Inson hayotda o'z o'rnini topishida uning odobi muhim o'rin tutadi. Kishining axloqi esa jahli chiqqanda o'zini qanday tutishida bilinadi.

ODOB QOIDASI

Odamning qalbi qanchalik go'zal bo'lsa, uning qilayotgan ishlari ham shunga monand bo'ladi. Bunday kishilar har qanday to'siq oldida ham o'zini yoqotib qo'ymaydi. Qolaversa, tarbiyali kishilar bilan hammaning suhbat qurgisi, muloqotda bo'lgisi keladi.

Hayotda shundaylar borki, qo'pol muomalasi, axloqsiz, odobsizligi bilan atrofdagilarni o'zidan uzoqlashtiradi. Axloqsizlikning birinchi omili bilimsizlik, tarbiyasizlik. Xo'sh, inson qachon aqlli bo'lishi mumkin. Qachonki, u ko'p kitob o'qisa, gazeta-jurnallar mutolaa qilsa, albatta.

Keling, aziz tengdoshim, gazeta-jurnallar orqali bir-birimizni yutuqlarimizdan boxabar bo'laylik! Bir-birimizdan bilmaganlarimizni o'rganib, o'mak olaylik! **Sevinch KENJAYEVA, poytaxtimizning Mirobod tumanidagi 110-IDUMning 8-«J» sinf o'quvchisi**

MUNOSIB SOVG'A

Tohirjonova, Dilobar Agzamova, Otabek Bahridinov, Abdurahmon Ismoilov, Saodat Hamzayeva kabi bilimdon o'quvchilarim faxrlil o'rinlarga sazovor bo'ldi.

Men bu muvaffaqiyatdan mamnun

bo'lib, ularni munosib taqdirlagim keldi. O'quvchilarga odatdagiday kitob sovg'a qilishni rejalaganimda, xayolimga shogirdlarimning «Tong yulduzi» gazetasini sevib o'qishlari keldi. Shunday qilib, maktabimizda o'tkazilgan katta tadbir o'quvchilarga mazkur nashr uchun yillik obuna varaqasini sovg'a qildim. Rangli tasma bilan bezalgan konvert ichini ochib hayratlangan bolajonlar menga tashakkur aytishdi.

Durdona LOLAYEVA, Toshkent shahar, Sergeli tumanidagi 300-umumta'lim maktabi o'qituvchisi

«BOLALIK KUNLARIMDA»

ENDI BOLAJONLAR UCHUN AUDIOERTAKLAR TAYYORLANADI

Bolalikda kim ham ertak tinglamagan, uning sehrli olamiga sayohat qilmagan, deysiz. Sevimli shoirimiz Hamid Olimjon yozganiday, uyqusiz tunlarimizda buvijonlar yoki onalarimiz aytgan ertaklar bizni xayolga cho'ndirar, ruhimizga ozuqa berardi.

yakunida 5 ta o'zbek va 5 ta rus tilida ertak jamlangan disklar Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tasarrufidagi do'konlarga

sotuvga chiqariladi. Kelajakda esa audio-ertaklarni ommalashtirish va bolalarning chet tillarini samarali

o'zlashtirishini yo'lga qo'yish maqsadida audiokitoblarni ingliz tilida tayyorlash, shuningdek, jahon xalq ertaklarining audio talqinlarini yaratish ham ko'zda tutilgan.

Bundan tashqari, Agentlik rahbari Komil Allamjonovning so'zlariga ko'ra, bu agentlik va vazirlik o'rtasidagi yagona loyiha bo'lib qolmaydi. Hozirda ikki tomon hamkorligida «Ko'ngil ko'zi» nomli loyiha ustida ishlanmoqda. Unga asosan, ko'zi ojiz bolalar uchun brayl yozuvidagi qo'llanmalar tayyorlanayotgani va ular tez kunda kitob do'konlari hamda Axborot-resurs markazlariga yetkazib beriladi. Bu paytgacha ko'zi ojiz bolalar ta'limida bu kabi qo'llanmalar, ertaklarning yetishmasligi og'riqli muammo bo'lib kelgan.

Shunday qilib, bu loyihalarning orqali bolajonlar ertaklarni nafaqat oila a'zolari, balki sevimli san'atkorlari tomonidan istagan vaqtlarida tinglashlari mumkin. Qolaversa, yangi loyiha texnika olamiga qiziquvchan bolajonlarni kompyuter-uzurli aloqa vositalaridan maqsadli va unumli foydalanishga o'rgatadi.

O'z muxbirimiz

Kuni kecha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida yangi «Bolalik kunlarimda» loyihasi taqdim etildi. Loyihaning ezgu maqsadi o'zbek xalq ertaklarining audio talqinlarini yaratish orqali ulkan madaniy merosimiz va xalq og'zaki ijodi namunalari kelajak avlodlarga yetkazishdan iborat. Agentlik tashabbusi, qo'llab-quvvatlashi va Maktabgacha ta'lim vazirligi bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan loyiha asosida professional studiyada yozilgan audioertaklar bundan buyon muntazam ravishda maxsus telegram kanalda bepul uzatib boriladi.

Shu kuni tadbirga tashrif buyurgan bolajonlarga «Zurad va Qimmat» ertagining audio talqini taqdim etildi. Bosh qahramonlarga Oy-barchin Bakirova, Dilnoza Kubayeva kabi san'atkorlar ovoz bergan bo'lib, audiokitob ustida bir guruh mutaxassislar hamkorlikda ish olib borishgan.

Loyiha doirasida har oy



Lesson 8

INGLIZ TILINI O'RGANAMIZ


DESCRIBING FEELINGS AND THINGS

Adjectives that end in -ed are describe how people feel:
e.g. *Alisher felt tired after working hard all day.*

Adjectives that end in -ing are used to describe things and situations:
e.g. *Working hard all day is tiring.*

Complete the sentences below using the correct adjective

- Rainy days in winter are depressed/depressing
- Dildora is bored/boring of doing the same thing every day.
- It was the most excited/exciting I have ever watched
- Bobur's exam results were disappointed/disappointing.
- Pupil did not know what to say. He was a bit confused/confusing.
- It was such an embarrassed/embarrassed situation.
- A woman was terrified/terrifying when she saw a big dog.
- A) - I am going to the USA for three months.
B) - How annoyed/annoying! How lucky!



Muhammadsharif FAYZULLAYEV

READ THE TEXT AND ANSWER THE QUESTIONS

This is Nigora. She is a pretty little girl. She is seven years old. She lives in Tashkent. Her family is big. She has a mother, father, sister, brother, grandfather and grandmother. Her father works in restaurant as a cooker. Her mother is a doctor. Her brother and sister study at school. Nigora likes to draw pictures and like listening to stories from her grandmother. This year she will go to school.

Nigora likes sweets, cakes, pineapples, strawberry and bears. She does not like soup, porridge, cucumber and potatoes. Her favorite fruit is orange.

Questions

- How old is she?
- Where does she live?
- What is her favorite fruit?
- Is her family big?



Gulchehra UBAYDULLAYEVA,
The student of Uzbekistan State World Language University

ENGLISH + MATHEMATICS



nineteen - ____ = seven
zero + five = ?
seven + ____ = thirty one
eleven * three = ?
hundred : ____ = two

Sirojiddin ERDONOV,
The pupil of school № 19,
Gijduvan district, Bukhara region

SAYOHATGA CHIQDIK

Termiz shahridagi 4-IDUMIning 6-sinf o'quvchilari Termiz tumanidagi tarixiy obidalar haqida batafsil ma'lumotga ega bo'lish maqsadida sayohatga chiqishdi. Ichki turizmni rivojlantirish, bolalarni mamlakatimizning tarixiy joylari bilan yaqindan tanishtirish maqsadida tashkil etilgan ushbu sayohatdan o'quvchilar olam-olam taassurot olishdi.



Kuni kecha G'afur G'ulom uy muzeyida «Ajdodlari ulug' yurt farzandlarimiz» shiori ostida poytaxtimizning Uchtepa tumanidagi «Orom» nomli 38-umumta'lim maktabining ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi Dilafruz Jalilova boshchiligida 5-, 8-, 9-sinf o'quvchilari ishtirokida ma'rifiy ta'bir bo'lib o'tdi.



Unda Alisher Navoiy nomidagi Adabiyot muzeyi xodimlari buyuk adiblar hayoti va ijodi to'g'risida qiziqarli ma'lumotlar berdi. 5-«V» sinf o'quvchilari Muhammadjon Akbarov, Qobiljon To'laganov, Abdulloxon Qobiljonov, Omina Sharipova hamda Aziza Mahmudovalar shoir ijodidan namunalarni aytib, kechaga fayz kiritdi.

Yakunda faol ishtirok etgan o'quvchilarga muzey rahbariyati tomonidan kitob va esdalik sovg'alari taqdim etildi.

N. ABDUNAZAROVA

Aziz o'quvchilar! Kitob javoningizni yana bir yangi ertak va hikoyalar to'plami bilan boyitishni istaysizmi? «Zarg'aldoq» deb nomlangan kitob muallifi yangiyo'llik ustoz opamiz Muhayyo To'laganovani yaxshi bilasiz. Bolalar adabiyotida o'z o'rniga ega bo'lgan ijodkorning ertak va hikoyalari bilan gazetamiz sahifalarida ham tanishib borgansiz.

60 yoshni qarshi olgan ustozning hikoyalari shirin va sodda tilda yozilgani, mavzu jihatidan xilma-xilligi, o'qishli ekanligi bilan sizlarga manzur bo'layotgan bo'lsa, ajab emas. Shunday ekan, «Zarg'aldoq» to'plamidan o'rin olgan bolalar hayotiga oid yangidan-yangi sarguzashtlar bilan, albatta, tanishib chiqing. Biz sizga kitobdagi «Odobli bola» hikoyasini o'qish imkonini taqdim etamiz.



TAHRIRIYATDAN.

Bugun Xolposh kam-pirikida «paxtasolar». Uch-to'rt uy narida turadigan La'li xolaning paxtasavalagichi qolib ketibdi. Ishkom tagida kitob o'qib o'tirgan Zilolaga, «Jon qizim, biznikiga chiqib kel-sang-chi», deb qoldi.

Shunda Xolposh buvi nevarasining o'rniga:

– Aylana, u darsini qilsin.

Ertaga sinovmi, bellashuvmi bo'larkan. Zilolan a'lochi, erta-yu kech qo'lidan kitob tushmaydi, – dedi g'ururlanib.

Bir payt ko'rpa qaviyotgan Sanobar xolaning nevaralari Zahro, Dono bir lagan qatlam ko'tarib chiqishdi.

Sanobar xola ham ularni

maqdashni boshladi:

– Biri sportchi, ikkinchisi qo'shiqni maromiga yetkazib kuylaydi. O'qituvchilari biram xursandkil

La'li xola iltimosini ularga ham aytmochi bo'ldi-yu, qo'shni-ning gapini bo'lmadi. U o'tirib-o'tirib, aylanish bahonasida darvozadan mo'raladi.



ODOBLI BOLA

(Hikoya)

Qo'y haydab kelayotgan bir bola qo'llarini ko'ksiga qo'yib salom berdi. U podani dalaga haydab, La'li buviga g'izillab savalagichlarini keltirib berdi.

Kampir undan «Kimning bolasi?» deb so'rab qolmagani uchun afsuslandi.

Muhayyo TO'LAGANOVA

Aziz bolajonlar, barchangizga ma'lumki, ota-onangiz va ustozlaringiz kitobga qiziqish va mehringizni orttirish niyatida Siz uchun badiiy adabiyotlar sovg'a qiladi. Yaqinda poytaxtimizning Yunusobod tumanidagi 220-umumta'lim maktabida «Kitob – bilimlar xazinasi» shiori ostida boshlang'ich sinf o'quvchilari ishtirokida «Zukko kitobxonlar» intellektual bellashuvi o'tkazildi. Tanlovda tumandagi 40 ta maktab o'quvchilari sakkizta jamoaga bo'lingan holda xalq og'zaki ijodi, o'zbek adiblarining asarlari nomi va janrini aniqlash, badiiy adabiyot namunalari asosida test yechish, o'zi yoqtirgan she'rni yod aytish, rebus yechish kabi topshiriqlarni mahorat bilan bajardilar.

KITOBXONLAR TANLOVI

– Tumandagi 98-, 105-, 122-, 274-, 288-umumta'lim maktabi o'quvchilaridan iborat «Kelajak javohirlari» guruhining «Bilimli avlod buyuk kelajakning kafolatidir» mavzusida tayyorlagan videolavha barchaga manzur bo'ldi, – deydi hakamlar hay'ati a'zosi, 9-umumta'lim maktabi o'qituvchisi Durdona Qodirova. – 274-umumta'lim maktabining 4-«B» sinf o'quvchisi Mohinur Vosiljonova «Qush bo'lib uchgan ona»

asaridan parcha ijro etganda, qatnashchilar uning iste'dodidan juda ta'sirlandilar. 288-umumta'lim maktabining 4-«A» sinf o'quvchisi Asal Safarboyeva esa tezkor savol-javob shartida o'zining hozirjavoblighi, bilimdonligi bilan alohida ajralib turdi. Bellashuvda 1-o'rinni olgan jamoa o'quvchilari ustozlari Marg'uba Qambarova va Nargiza Aslanovadan minnatdor ekanliklarini alohida ta'kidlashdi.

– O'quvchim Mohinur 1-o'rinni qo'lga kiritganidan, mehnatim besamar ketmaganidan behad mamnunman, – deydi Marg'uba Qambarova. – U ko'p o'qiydi, mutolaa qilgan kitoblari haqida o'z taassurotlarini ham yozib beradi. Qolaversa, yangi kitoblar bilan tanishtirib borayotgan «Tong yulduzi» gazetasidan ham minnatdormiz.

Mahmuda VALIYEVA

Yaqinda Surxondaryo viloyati, Denov tumanida-gi 14-Davlat ixtisoslashtirilgan umumta'lim maktab-internatida 9-«A» sinf o'quvchisi Aziza Tursunovaning O'zbekiston chempioni bo'lgani va Ispaniyada bo'lib o'tadigan jahon chempionatida ishtirok etish huquqini qo'lga kiritgani haqida ajoyib xushxabar tarqaldi. Chempion qizni kutib olish marosimi esa haqiqiy bayramga aylanib ketdi.

MAKTABDAN CHEMPION CHIQDI



etib, g'oliblar safidan joy olmoqda, – deydi maktabning yoshlar yetakchisi. – Aslida, maktabimizning nafaqat tuman, balki viloyatimiz reytingidagi o'rni juda yuqori. Faol va bilimdon o'quvchilarining yutuqlari ham maqtansa arzigudek.

– G'alaba o'z-o'zidan kelmaydi, har bir muvaffaqiyat ortida tinimsiz mehnat, mashaqqat yotadi. O'zbekiston chempioni degan sharafli nomga erishish uchun ham yillar davomida mehnat qilindi, zahmat chekiladi. Buning uchun, avvalo, bizlarga shunday imkoniyatlarni yaratib berayotgan Prezidentimizga tashakkur aytaman. Qolaversa, ota-onam, murabbiylarim, maktabimizdagi barcha ustozlarim, maktabimiz

– Maktabimiz tarixida birinchi marta O'zbekiston chempionini kutib olyapmiz. Nasib bo'lsa, o'quvchimiz jahon chempionatida ham munosib ishtirok etadi, – deya ezgu niyat bildirdi maktab rahbari Alimardon Jumayev.

Shuningdek, bayram tabdirida ishtirok etgan tuman xotin-qizlar qo'mitasi raisi N.Toshqulova, tuman hokimining jismoniy tarbiya va sport ishlari bo'yicha o'rinbosari A.Abdusattorov, tuman xalq ta'limi bo'limi uslubchilari D.Bekmurodov, F.Xudoyberdiyev, F.Rasulov, tuman Yoshlar ittifoqi Kengashi vakili Z.Ataxonov kabilar

chempionni qutlashar ekan, har bir o'g'il-qiz o'z oldiga yuksak maqsadlar qo'yib, unga intilsa, bundan-da yuqori natijalarga erishishlari mumkinligini ta'kidlashdi. Maktabning 6-sinf o'quvchisi Malohat Otajonova chempion maktabdoshiga havas qilib, unga atab yozgan «Chempionni qutlaymiz!» nomli she'riini o'qib berganida, zalda gulduros qarsaklar yangradi.

Surxonning quchog'ida, Ulg'aydingiz, opajon. Hammani lol qoldirib, Bo'ldingiz zo'r chempion.

Guldastalar ko'tarib, Peshvoz chiqdik qutlashga.

Juda ko'p mehmon keldi, Chempionni qutlashga.

G'olib bo'lib har safar, Kelishingiz kutamiz. Mehrimizni qo'shq'olib, Qo'lingizga tutamiz.

– O'zbekiston chempioni Aziza Tursunova ilk marotaba 2010-yilda Sharq yakkakurashi bo'yicha Surxondaryo viloyati ochiq chempionatida 2-, 2012-yilda esa «Kamolot» shaxmat taxtasi) Respublika musobaqasining viloyat bosqichida 1-o'rinni egallab, respublika bosqichiga yo'llanma olgan edi. Shundan beri deyarli har yili 2-3 marotaba viloyat va respublika musobaqalarida faol ishtirok

direktori Alimardon Jumayev hamda sinf rahbarim Alimardon Jabborovga menga ko'rsatgan cheksiz mehr va e'tiborlari uchun alohida minnatdorlik bildiraman. Ularning olqishlaridan ruhlanib, nasib bo'lsa, maktabimiz, tumanimiz, viloyatimiz, qolaversa, O'zbekistonimizga bundan-da katta yutuqlar olib kelaman, – deydi Aziza.

Biz ham O'zbekiston chempioniga omad tilaymiz va Ispaniyada bo'lib o'tadigan jahon chempionatida muvaffaqiyatli ishtirok etib, yurtimizga yorug' yuz bilan qaytishini kutib qolamiz.

Feruza SOYIBJON qizi, Mashrab ANOROV

BOLGARIYA RINGLARI OMAD KELTIRDI

Har gal bokschilarimizni xalqaro musobaqalarga kuzatir ekanmiz, ulardan ajoyib va olamshumul g'alabalar kutamiz. Bu bejiz emas, albatta.

Mamlakatimizda bolalar sportini rivojlantirish, yosh avlod o'rta-sida sog'lom turmush tarzini qaror toptirish borasida amalga oshirilayotgan xayrli ishlar tufayli o'zbek charmo'q'loq ustalari Osiyo va jahon chempionatlari, Olimpiya o'yinlarida doimo g'oliblik uchun eng asosiy da'vogar sifatida e'tirof etiladi.

O'tgan hafta Bolgariya poytaxti Sofiya shahrida o'tkazilgan «Strandja» xalqaro turnirida o'zbek o'g'lonlari erishgan g'alabalarni so'zimiz isboti sifatida keltirib o'tishimiz mumkin.

Ushbu turnir har yili yuqori saviyada tashkil etilib, unda vakillarimizdan tashqari Kuba, Qozog'iston, Ukraina, Rossiya, AQSH, Fransiya, Irlandiya, Meksika kabi boks sport turi eng rivojlangan mamlakatlarning sara charmo'q'loq ustalari g'oliblik uchun bahs olib boradilar.

Bu yil 70-bor tashkil etilgan musobaqa vakillarimiz uchun har qachongidan-da muvaffaqiyatli o'tdi. Quvonarlisi, yakunda o'zbek sportchilaridan 5 nafari shohsupaga ko'tarildi. Jumladan, -56 kg. vaznda mohir va umidli bokschimiz Mirzabek Mirzaxalilov barcha raqiblarini ortida qoldirib, shohsupaning eng yuqori pog'onasidan joy egalladi. Shu o'rinda Mirzabekka final bahsida yana bir iqtidorli sportchimiz Abdulhax Shorahmatov raqiblik qilganini ta'kidlab o'tish joiz. Shuningdek, -69 kg. vazndagi yetakchi bokschimiz Bobousmon Baturov ham o'ziga bildirilgan ishonchni to'la oqlab, oltin medalga sazovor bo'ldi. -52 kg. vaznli Xudoynazar Fayzov kumush, Shunqor Abdurasulov esa bronza medali bilan taqdirlandi.

Kuni kecha Islom Karimov nomidagi Toshkent xalqaro aeroportida g'olib sportchilar tantanali tarzda kutib olindi.

Farg'ona ixtisoslashtirilgan Olimpiya zaxivalari maktab-internati o'quvchilari taekvando WTF bo'yicha Rossiyada o'tkazilgan «Moskva open» xalqaro turnirida muvaffaqiyatli ishtirok etdi.

EGIZAKLARNING OLTIN MEDALI

O'smir-lar o'rta-sidagi bahslarda vodiylik sportchilar o'z iqtidori bilan barcha muxlislarda iliq taassurot qoldirdi. Ayniqsa, opa-singil Fotima va Zuhra Tojimatovalarning tezkor harakatlari, raqiblariga qarshi qo'llagan chiroyli usullari musobaqa bezagiga aylandi. Yakunda ular oltin medalni qo'lga kiritib, shohsupaga ko'tarildilar. Shuningdek, Sulaymon Mo'minov hamda Bahodir Mirzaboyevlar kumush medaliga munosib ko'ildi.

Sa'dullo TURSUNOV





YO'L QOIDASINI BILASIZMI?

Bugun ko'chalarimiz serqatnov. Avtotransport vositalari ko'paygani sari yo'llarda harakat xavfsizligiga rioya qilish, yo'l-transport hodisalarining oldini olish, ayniqsa, bolalarni turli ko'ngilsiz hodisalardan asrashni taqozo etmoqda.

Afsuski, yo'l-transport hodisalarining har uchtdan bittasi piyodalar ishtirokida sodir bo'ladi. Ular orasida bolalar va o'smirlarning ham borligi achinarlidir. Shu bois, maktab ta'limi doirasida «Yo'l harakati qoidalarini» darslarini o'tish, shuningdek, o'quvchilarga yong'in xavfsizligi, favqulodda vaziyatlarda harakatlanish qoidalarini o'rgatish, umuman, hayot xavfsizligi asoslaridan saboq

berish juda muhim.

Angren shahridagi 22-umumta'lim maktabi serqatnov ko'chaga yaqin manzilda joylashgan. Kuni kecha mazkur ta'limi maskanida «Yo'l qoidasi – umr foydasi» mavzusida o'tkazilgan tadbirida ularning ana shu sohadagi bilimlari yana bir bor ko'rikdan o'tdi.

Angren shahar YHXB boshlig'i Suhrob Abdurasulov, «Avtomotohavaskorlar» ko'ngilli jamiyatiga qarashli shahar avtomaktabi rahbari o'rinbosari Baxtiyor Mahkamov, avtomaktab katta o'qituvchisi G'ofurjon Olloyorovlar ishtirokidagi tadbirida 4-sinf o'quvchilari yo'l harakati qoidalariga oid bilimlarini namoyish qildilar. Mehmonlar esa sohadagi so'nggi yangiliklar xususida so'z yuritdilar. Shuningdek, yo'l harakati qoidalariga qat'iy amal qilish, katta ko'chadan kesib o'tayotganda hamisha hushyor bo'lish zarurligini alohida ta'kidladilar. So'ng, mutaxassislar o'quvchilarni qiziqtirgan barcha savollarga javob berdilar.

Tadbirida faol ishtirok etgan o'quvchilar mehmonlar tomonidan esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.

Nurbek QIDIRALIYEV



BO'SH O'TIRMAI, BOSH QOTIR!

Quyidagi davlatlar poytaxtlari nomlarini topib krossvord shakliga yozish bilan bilimingizni sinab ko'ring.

Bo'yiga: 1. Koreya Xalq Demokratik Respublikasi. 3. Keniya Respublikasi. 11. Niger Respublikasi. 13. Serra-Leone Respublikasi. 14. Chad Respublikasi. 22. Pokiston

«POYTAXTLAR» KROSSVORDI

Islom Respublikasi. 23. Hindiston Respublikasi.

Yoy bo'yicha: 1. Fransiya Respublikasi. 2. Indoneziya Respublikasi.

«Zanjir» holida: 4. Turkmaniston Respublikasi. 5. Senegal Respublikasi. 6. Marokash Podshohligi. 7.


Albaniya Parlamentli Respublikasi. 8. Gretsiya Respublikasi.

Diagonal bo'yicha o'ngga: 9. Irlandiya Respublikasi. 15. Yaponiya konstitutsiyali monarxiya davlati. 17. Shvetsiya konstitutsiyali monarxiya davlati. 18. Chexiya Respublikasi. 20.

lordaniya konstitutsiyali monarxiya davlati.

Diagonal bo'yicha chapga: 10. Eron Islom Respublikasi. 15. Tunis Respublikasi. 16. Janubiy Koreya Respublikasi. 19. Bangladesh Respublikasi. 20. Gana Respublikasi.

Eniga: 12. Boshqirdiston Respublikasi. 16. Yaman Respublikasi. 21. Italiya Respublikasi.



Tuzuvchi: Foziljon ORIPOV

Tong yulduzi
Muassis:
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi

Bosh muharrir
Feruz A DILOVA
Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida
0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAYATI:
Qahramon QURONBOYEV, Dilshod KENJAYEV, Murtazo SULTONOV, Feruz JALILOVA, Ashurali JO'RAYEV (Bosh muharrir o'rinbosari), Feruz MATYOQUBOV (mas'ul kotib)

Navbatchi muharrir
Nodira NAZAROVA
Rassom
Feruzbek KAMOL o'g'li
Sahifalovchi-dizayner
Shaxobiddin MAXMADIYEV

«O'zbekiston» NMIU bosmaxonasida chop etildi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga bosmaxona mas'ul.
Manzili: Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30-uy. Indeks: 100011.
Obuna indeksi: 198.
e-mail: info@tongyulduzi.uz
www.tongyulduzi.uz
Adadi – 14202
Buyurtma – 3160

Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Shakli A-3, 2 bosma taboq.
Bahosi kelishilgan narxda.
Gazeta haftaning dushanba kuni chop etiladi.
Topshirish vaqti – 18:00
Topshirildi – 18:00
Tel./faks: (99871) 244-63-08